

KICHIK BIZNESGA KATTA SARMOYALAR

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mamlakatimiz iqtisodiyoti taraqqiyotida o'ta muhim va salmoqli o'ringa ega. Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga madadkor bo'lish mamlakatimizning yanada taraqqiy ettirishning asosiy yo'nalishlaridan biridir.

Bu borada «Asaka» aksiyadorlik tijorat banki Qashqadaryo viloyat filiali tomonidan kichik biznes subyektlari va tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq belgilangan reja asosida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Bank filiali yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, mahalliy hom-ashyodan import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga va xizmatlar ko'rsatishga mo'ljallangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari loyihamalarini moliyalashga kreditlar ajratish va lizing xizmatlari ko'rsatish orqali iqtisodiyotimiz rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Bank filiali kredit portfeli hajmi 2015 yil 1 oktyabr holatiga 54,3 mlrd.so'mdan oshdi. Kredit qo'yilmalarining asosiy qismini uzoq muddatli kreditlar tashkil etadi.

2015 yilning 9 oyi davomida «Asaka» bank Qashqadaryo viloyat filiali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga jami 23,1 mlrd. so'mlik kredit mablag'larini yo'naltirdi. Bu mablag'lar viloyatda ishlab chiqarish, servis va xizmat ko'rsatish ko'lamlarini kengaytirish, hudud iqtisodiyoti va ijtimoiy turmushini yuksaltirishga xizmat qilishi va qolaversa, mamlakat kuch-qudratini oshirishga munosib ulush bo'lib qo'shilish barobarida ushbu sarmoyalar evaziga qo'shimcha yangi ish o'rirlari yaratildi.

Yurtboshimizning 2009 yil 26 yanvardagi "Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori tadbirkorlik ravnaqiga samarali ta'sir ko'rsatayotganligini takidlash lozim. Yurtimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar zamirida odamlarning farovon hayot kechirishi, turmushi bundan-da obod va go'zal bo'lishini ta'minlash muddaosi namoyon ekanligini yaqqol tasdiqllovchi mazkur dasturilamal hujjat talablari doirasida bank mijozlari 4,0 mlrd.so'mga yaqin kredit mablag'lari bilan ta'minlandilar. Prezidentimizning "Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori ijrosi yuzasidan ajratilgan kreditlar esa 1,3 mlrd. so'mdan oshdi. Natijada, mahalliy iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish jabhasida ijobiy o'zgarishlarga erishildi.

Tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy va moddiy-texnikaviy salohiyati tubdan mustahkamlandi. "Viloyat naslchilik" mas'uliyati cheklangan jamiyatining bank bilan moliyaviy sohalardagi hamkorligi buni yaqqol isbotlaydi. Chorvachilikka asoslangan xo'jalik bankning kredit sarmoyasi tufayli qaddini tiklabgina qolmasdan bosqichma-bosqich rivojlanishga ham muyassar bo'layapti. Bankdan olingan kredit mablag'i evaziga yaqinda bu yerda yana yangi ish o'rirlari yaratildi. Eng muhimi, yetishtirilgan sifatlari tuxim va parhez go'shti bozorda bu hil mahsulotlar narhining pasayishiga olib kelayapti.

Viloyatda tadbirkorlik, xususan, kichik biznes subyektlari sonining muntazam ravishda ortishi kuzatilmoque. Jahon tajribasidan ma'lumki, yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlarining oyoqqa turib olishi oson kechmaydi. Bunday pallada ularni izchil ravishda qo'llab-quvvatlamoq, tasarrufidagi boshlang'ich kapital moliyaviy manbaalarini ko'paytirishga faol ko'maklashmoq darkor. Binobarin, yurtimizning tadbirkorlikni avj oldirishga qaratilgan qonunlari, Yurtboshimiz farmonlari va qarorlari ularga imkoniyat eshiklarini ochib bermoqda.

«Asaka» bank Qashqadaryo viloyat filiali tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 iyuldagagi "Qarshi shahrini yo'l-transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish va zamonaviy qayta qurish rejasi dasturi to'g'risida"gi Qarori ijrosini ta'minlash bo'yicha hozirgi kunda Qarshi shahri O'zbekiston ko'chasi bo'ylab 6ta va Shaxrisabz shahrida 3ta ko'p qavatli uy-joy binolarining qurilish ishlari olib borilmoqda. Uy-joylar qurib bitkazilishi natijasida Qarshi va Shahrisabz shaharlarida aholi, shu jumladan yosh oilalar uy-joylar bilan ta'minlanadi. Mazkur uylarning birinchi qavati zamonaviy savdo do'konlari va maishiy xizmat ko'rsatish muassasalariga mo'ljallangandir. Bu esa, o'z navbatida aholi uchun viloyat tadbirkorlari tomonidan ishlab chiqarilgan va yetishtirilgan mahsulotlarni sotishga hamda xizmatlar ko'rsatishga va yangi ish o'rinalarini yaratishga zamin yaratadi.

Prezidentimizning 2013 yil 2 avgustdagagi "2013-2016 yillarda Qashqadaryo viloyati sanoat salohiyatini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, Qamashi tumanidagi "Issiq non-XS" xususiy firmasiga konditer mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun uzoq muddatli kredit mablag'lari ajratildi. To'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Murodali farm tekstil" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga kredit mablag'lari ajratildi.

Bankning bu sohadagi tadbirlari ko'lami ancha keng hamda salmoqli va unga doir misollarni ko'plab keltirish mumkin. Xulosa o'rnida aytildigan bo'lsa, mijozlar manfaati bank xodimlari uchun doimo ustuvor va hamisha asosiy o'rinni egallaydi.

**Sirojiddin MURODOV,
"Murodov Rahmatulla Mavlonovich" mas'uliyati cheklangan jamiyat
boslig'i:**

— «Asaka» bank tomonidan ajratilgan kredit mablag'i hisobiga korxonamizda paxtani qayta ishslash natijasida xosil bo'lgan chiqindilarni qayta ishlab, yiliga 750,0 mln.so'mlik momiq mahsulotlarini ishlab chiqarishga erishdik. Qo'shimcha yangi ish o'rinalari yaratilib, 5 nafar mahalliy yoshlar ish o'rinalari bilan ta'minladi. Hozir jamiyatimiz moddiy va moliyaviy barqarorlik yo'lidan dadil borayapti. Joriy yilda 560,8 mln.so'mlik momiq maxsulotlari ishlab chiqarilib, viloyatimiz aholisiga yetkazdik.

O'tgan qisqa fursat ichida «Asaka» bank va jamiyatimiz o'rtasidagi hamkorlik aloqalari davr sinovidan o'tdi. O'rtamizda qat'iy ishonch yuzaga keldi. Jamiyatimiz bank sarmoyalari sharofatidan iqtisodiy barqarorlikka tuyassar bo'layotgan ekan,

o'rtadagi ishonchli va foydali hamkorlik bundan keyin ham samarali davom etishiga astoydil umid bog'laymiz.

Sirojiddin TURSUNOV,

"Asl qurilish servis savdo" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari:

— «Asaka» bank bilan moliyaviy hamkorlikka bel bog'lar ekanmiz, ko'zlagan rejalarimiz tez ro'yobga chiqishiga ishongan edik. Kredit uchun bankka berilgan buyurtma oradan bir oz vaqt o'tmasdanoq qondirildi. «Asaka» bank krediti hisobiga zamonaviy eshik va romlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yidik. Shahrizim aholisi va qurilish tashkilotlariga sifatli va zamonaviy eshik va romlarni yetkazib beryapmiz. Korxonamiz tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifati jihatidan iste'molchilarining maqtoviga sazovor bo'lmoqda. Bank tomonidan ajratilgan kredit hisobiga 4 nafar yangi ish o'rirlari yaratildi. Ushbu yangi ish o'rirlariga viloyatimizdagi kasb-hunar kolledji bitiruvchilarini ishga qabul qildik.

Ommaviy tadbirkorlik harakati tufayli yurtimiz yashnamoqda, mamlakat kuch-qudrati ortib, xalqimiz hur va farovon hayot kechirmoqda. Bunday oljanob sa'y-harakatlarga barcha yosh tadbirkorlar qatori men ham samarali ulush qo'shayotganidan xursandman. Bunda bizga albatta «Asaka» bank moliyaviy ko'magi qanot bo'lmoqda.

Sa'dulla XOLIYAROV,

"Issiq non-XS" ishlab chiqarish savdo firmasi rahbari:

— Bugungi kunda banklar tadbirkorlar bilan nafaqat mijoz sifatida, yaqin hamkor, hammaslak va madadkor sifatida mustahkam aloqa bog'lamoqda. O'z biznesini yo'lga qo'yish istagida bo'lgan ishbilarmonlarga birinchi navbatda bank yordam qo'lini cho'zmoqda.

O'z faoliyatim misolida aytadigan bo'lsam, yurtimiz mustaqillikka erishgandan keyin men xam tadbirkor bo'lay deb, yaxshi niyatlar bilan xalqimiz aholisini sifatli non mahsulotlar bilan ta'minlashga astoydil bel bog'ladim va farzandlarim bilan maslahatlashib, non maxsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirishga kirishdik. Korxonamiz faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida viloyatda eng ko'zga ko'ringan, nufuzli banklardan biri bo'lgan — «Asaka» bankning Qashqadaryo viloyat filialiga murojaat qildik. Bank ma'muriyati tez fursatda zarur bo'lgan kredit mablag'ini ajratib berdi. «Asaka» bank bilan ko'p yillik hamkorlik aloqalarimiz natijasida bizning korxonamizda ko'plab o'zgarishlar yuz berdi, non mahsulotlari turlarini ko'paytirishga va ularni sifatini yanada yaxshilashga erishdik. Hozirda ishlab chiqarishni kengaytirib, qandolat va makaron mahsulotlari ishlab chiqarishni maqsad qilganmiz. «Asaka» bank krediti hisobiga xorijdan zamonaviy uskunalar olib kelmoqchimiz. Bu esa ayni paytda viloyatimiz aholisini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga keng zamin yaratadi.

Qo'shimcha yangi ish o'rirlarini yaratib, xalqimiz xayotini yanada farovon va to'kin qilishga o'z hissamizni qo'shishni niyat qilib turibmiz. Albatta, bu borada

«Asaka» bank bizning yaqin va ishonchli hamkorimiz, doimiy madadkorimiz bo'lib qoladi.

Sirojiddin EGAMNAZAROV,

“Filling Food” xususiy korxonasi rahbari:

— Niyatimiz Qarshi shahrida aholi uchun sifatli go'sht maxsulotlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishdan iborat edi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun «Asaka» bankning Qashqadaryo viloyat filialiga murojaat qildik va ushbu murojaatimiz qisqa muddatda ko'rib chiqildi. Bankning kredit mablag'i evaziga qisqa vaqt ichida faoliyatimizni yo'lga qo'ydik. Hozirgi kunda korxonamiz tomonidan sifatli go'sht mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda va aholi dasturxoniga etkazib berilmoqda. Shaxrimiz aholisi biz ishlab chiqargan mahsulotlardan mammun bo'lmoqdalar.

Bizning muvaffaqiyatga erishishimizda «Asaka» bankning ko'magi beqiyos ekanligini ta'kidlashimiz lozim. Korxonamizning faoliyat yuritishida «Asaka» bank ko'magida bundanda istiqbolli loyihalarni amalga oshirishga bel bog'laganmiz.